

AMIR TEMUR ISTILOLARI: QARASHLAR, IZLANISHLAR VA YONDASHUVLAR

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna, Turan universiteti "Garb tillari"
kafedrası professori v.b., filologiya fanlari doktori

AMIR TEMUR'S CONQUESTS: VIEWS, RESEARCH AND APPROACHES

Yakhshieva Zebo Rashidovna, Acting Professor of the Department
of "Western Languages" of Turan University, Doctor of Philology

ЗАВОЕВАНИЯ АМИРА ТЕМУРА: ВЗГЛЯДЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ И ПОДХОДЫ

Яхшиева Зебо Рашидовна, профессор кафедры "Западные
языки" университета Турон, доктор филологических наук



<https://orcid.org/0009-0006-0973-6147>

e-mail:

zebona.sevinch@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk o'zbek sarkardasi Sohibqiron Amir Temur haqida olib borilgan ilmiy va tarixiy tadqiqotlar o'zaro qiyoslandi. Ayniqsa, Sh.Sh.Alauevaning "Amir Temurning ma'rifiy-tarbiyaviy qarashlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqoti rakursidan boshqa olimlar hamda sharqshunoslar asarlarida ilgari surilgan qarashlar ma'lum bir ketma-ketlikka keltirildi. Ilmiy izlanishlarni o'zaro qiyoslash, xronologik, tipologik qiyoslash asnosida yangi ilmiy xulosalar berishga intildik. Dunyo hamda sharq olimlari, xususan, o'zbek olimlarining Amir Temurni nafaqat sarkarda, balki kuchli tafakkur egasi, kuchli diniy va o'z davri mafkuraviy ilmlarining bilimdoni sifatidagi faoliyati "Temur tuzuklari" tahlilida ochib berildi. Ilmiy izlanishlardan oziqlangan adabiyotshunioslar faoliyatiga ham ushbu doirada to'xtab o'tildi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, kontrast, Yildirim Boyazid, sharqshunoslik, temurshunoslik, Temur tuzuklari, imperiya.

Abstract: In this article compared the scientific and historical research conducted on the great Uzbek conqueror Sahibkiran Amir Temur. In Particular, Sh.Sh.Alaueva's scientific study "the enlightened views of Amir Temur brought to a certain sequence the views advanced in the works of other scholars and Orientalists from her target. We sought to make new scientific conclusions on the basis of cross-examination of scientific research, chronological, typological comparison. The work of scientists of the world and the East, in particular Uzbek scientists, Amir Temur, not only as a leader, but also as a strong statesman, a strong religious and a connoisseur of the ideological Sciences of his time, was revealed in the analysis of the "Temur's structures". The activities of literati, fed by scientific research, were also interrupted in this framework.

Key words: Amir Temur, contrast, Yildirim Boyazid, Oriental Studies, Temur's laws, Empire.

Аннотация: В этой статье сравниваются научные и исторические исследования, проведенные о великом узбекском завоевателе Сахибкиране Амуре Темуре. В частности, научное исследование Ш.Ш.Алауевой "Просвещенные взгляды Амира Темура" привело в определенную последовательность взгляды, изложенные в работах других ученых-востоковедов из ее круга. Мы стремились сделать новые научные выводы на основе перекрестного анализа научных исследований, хронологического, типологического сравнения. При анализе "структур Темура" была раскрыта работа ученых мира и Востока, в частности узбекских ученых, Амира Темура не только как лидера, но и как сильного государственного деятеля, сильного религиозного деятеля и знатока идеологических наук своего

времени. Деятельность литераторов, подпитываемая научными исследованиями, также была прервана в этих рамках.

Ключевые слова: Амир Тему́р, контраст, Елди́рим Боя́зид, востоковедение, законы Тему́ра, Империя.

KIRISH. Zabardast tarixiy siymo, minglab tadqiqotlar manbai, badiiy asarlar bosh qahramoni, o'zbek millati davlatchiligidagi eng ko'zga ko'ringan sarkarda Amir Temur faoliyati va hayot yo'llari haqida ma'lumot beruvchi manbalarni o'rganish tarix, adabiyot, iqtisod va san'at, huquq va siyosat kabi ko'plab soha vakillarini qiziqtirishi shubhasiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Sh.Sh.Alauyevaning "Amir Temurning ma'rifiy-tarbiyaviy qarashlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi o'ziga qadar yaratilgan qator ilmiy jabha vakillari izlanishlarini xronologik, tipologik hamda qiyosiy o'rgangan holda Amir Temurning siyosiy faoliyati va imperiyasi to'g'risida yozilgan asarlar ikki guruh doirasida o'rganiladi:

Birinchidan: buyuk Sohibqiron yuritgan siyosatga ijobiy munosabatda bo'lgan, uni har taraflama xolisona tadqiq etgan olimlar, tarixchilar va elchilar faoliyati. Bu guruh faoliyatiga G'iyosiddin Alining "Amir Temurning Hindostonga yurish kundaliklari" ilk tarixiy madhiya ruhida yozilgan asarlar sirasiga kiritiladi. Shuningdek, Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"lari, Muyinitdin Natanziy, Hofizi Abro'ning, Abdurazzoq Samarqandiyning va albatta Alisher Navoiyning asarlarida Amir Temur o'z avlodlariga namuna va faxr bo'la oladigan tarixiy siymo sifatida vaf etilgan. Shu bilan birgalikda, Rui Gonzales de Klavixoning Ispaniya qiroli Genrix III ning elchisi va vakili sifatida uning bir necha bor Sohibqiron bilan uchrashuvlaridan olgan, u haqidagi taassurotlari, yurti, malikalari va saroy amaldorlari haqidagi qimmatli ma'lumotlarini ham keltirish mumkin. Fransiya qiroli Karl VI va Ingliz qiroli Genrix IV va Ko'ragon Temurbek bilan bo'lgan yozishmalarda ham, ulardan vakil bo'lgan elchi-arxiyepiskop Ioxann va boshqalarning kundaliklarida ham Amir Temurga nisbatan yuksak baho berilganligining guvohi bo'lish mumkin. O'zbek olimlari orasida esa, bunday ilmiy tadqiqot egalarini ko'plab keltirish o'rinli. B.Ahmedov, A.Ahmedov, T.Fayziyev, Muhammad Ali, O.Yoqubov va A.Oripov, I.Subhoniy va S.Toskandiy kabi yuzlab nomlarni keltirish joiz.

O'zbek tarixshunos olimlari orasida Shohista O'ljayeva, Durdona Rasulmuhammedova, Zulfiya Pardayeva hamda G'ayrat Murodov, Bahodirjon Ermatov, Muzaffar Yakubboyev, D.Yusupova kabi tarixchi va adabiyotshunos olimalarimiz ham talaygina.

Ikkinchidan: Bu tarixiy shaxsni bir tomonlama salbiy nuqtayi nazardan isloh etishni maqsad etgan, uni kamsitish yoxud o'zi yashagan davr siyosati talablaridan kelib chiqib salbiylashtirgan asarlar o'rganilgan. Ushbu taassurotlarda Amir Temur asosan bosqinchi va qonxo'r sarkarda, istilochi va din niqobi ostida o'z xatti-harakatlarini xaspo'slashga intilgan siyosatchi va o'zi bosib olgan yurtlarni talon-taroj etgan, katta qirg'inbarotlarga sababchi bo'lgan istilochi sifatida baholanadi. Sergey Borodin, Fridrix Shlessler kabi ko'plab tarixchi va adiblar sharqona manbalardan bexabar va Ibn Arabshohning ba'zi salbiy tasavvurlariga tayangan holda, ingliz adabiyotshunosligida Kristofer Marlo hamda ingliz zabon she'riyatda Edvard Gibbonlarning asarlari mana shunday salbiy ruh singdirilgan asarlar sirasiga kirishini quyidagicha izohlash mumkin. Ular bundy qarashlarni g'arbona manbalar orasida Amir Temur istilo etgan yurtlarning solnomalari, Yildirim Boyazidning mag'lubiyati yuzasidan tarqalgan uyg'ur va turk xalqining mish-mishlari bilan sug'orilgan asarlarga tayanilgani sir emas.

Biz esa o'z ilmiy izlanishlarimizdan kelib chiqib, ushbu olimlarning yuqorida keltirilgan mulohazalarini to'ldirishga intildik. Chunki, tarixshunoslik va adabiyotshunoslik olamida ushbu shaxs haqida shunday asarlar yaratilganki, ular bu qarashlarning uchinchi qismi to'ldirilishiga ehtiyoj sezadi. Ular Amir Temur haqida bir vaqtning o'zida ijobiy qarashlarni ilgari surgan, ammo ba'zi o'rinlarda tarixiy asarlarning xatolariga qo'shilgan, xolislikni ta'minlash o'rniga yuqoridagi asoslanmagan shaxsiy tasavvurlarga qo'shilish bilan cheklangan adiblar. Jahon sharqshunoslari va yozuvchilari, tarixchi olimlari va siyosatdonlari orasida Eduard Gibbon, Hammer-Purgstall, Maks Myuller, Lyusen Keren va Jan pol, L.Lyangle va Beatris Manz, A.Yakubovskiylarning faoliyatini

aynan mana shunday yoʻlda yozilgan asarlarga kiritish mumkin. Herman Vamberi, Hilda Hukhem kabi olimlar ham oʻz izlanishlarida Amir Temurning tugʻilgan yili va manzili hamda uning Yildirim Boyazidni qafasga solishi bilan bogʻliq notoʻgʻri mulohazalarini uchratish mumkin. Oʻz-oʻzidan ushbu qarash ham masalani toʻlaqonli ochib bera olmasligini inobatga olib, ushbu qarashning kontrasti, yaʼni Amir Temur nomini salbiylashtirish maqsadida yozilgan-u, ammo oʻz mulohazalarida uning mardligi, yigirma yetti davlatni bir imperiya ostida birlashtira olish uchun katta harbiy strategiya egasi va ilohiy shaxs ekanligiga, uning adolati va kuchli diplomatiyasini tan olgan va hatto eʼtirof ham etgan ilmiy izlanishlar turkumini oʻrganish lozim boʻladi. Ibn Arabshoh hamda L.Stroyeva, G.Pugachenko kabilarning faoliyatida mana shunday nomutanosibliklar koʻzga tashlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Aksariyat tadqiqotlarda, shuningdek, “Temur tuzuklari”da keltirilgan tarbiyaviy masalalar haqida mushohada yuritilar ekan, unda keltirilgan fikrlarni Ibn al-Mukaffoning “Kitob al-adab, al-Kabir”, Ibn Xutaybaning “Uyun al-axbor”, Al Johidning “Kitob at-taj”, Nizom ul-mulkning “Siyosatnoma”, Kaykofusning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” kabi asarlarida bitilgan axloqiy qarashlari bilan solishtirish lozimdek koʻrinadi[1;9]. Bu oʻrinda Amir Temurning maʼrifiy-tarbiyaviy gʻoyalarining shakllanishi shart-sharoitlarini oʻrganib chiqish, uni nafaqat davlat arbobi, balki “Temur tuzuklarini” tahlil eta oluvchi olimlar sifatida, Amir temurni Oʻrta Osiyo maʼrifiy-tarbiyaviy fikrlarining rivojlanishida tutgan oʻrnini aniqlash zarurati tugʻiladi. Shuningdek, Amir Temurning ijtimoiy-falsafiy fikrlari uning tarbiyaviy-maʼrifiy qarashlarining asosi ekanligini ochib berish, bu qarashlarni bir tizimga keltirishga va uning asosiy yoʻnalishlarini belgilash orqali, yosh avlodni tarbiyalash borasida tavsiyalar ishlab chiqish zamona yosh tadqiqotchilari oldida turgan muhim ilmiy izlanishlarga mavzu boʻla oladi. Koʻplab tadqiqotlarni kuzatar ekanmiz, Amir Temur davri haqida hikoya qilishda quyidagi davriy va makoniy taraqqiyot omillari sanab oʻtiladi. Jumladan Movarounnahr yurti azal-azaldan mohir hunarmandlar yurti sifatida eʼtirof etilsa-da, tor doirada aynan toʻqimachilik, metalga ishlov berish va binokorlik, kulolchilik aynan bu yurt shahar aholisining tirikchilik kasbi sanalgan. Shuningdek,

ayollar tomonidan matolarga naqsh solish va zargarlik, kashtadoʻzlik va kandakorlik hunarlari ham avloddan avlodga oʻtib kelgan. Samarqand esa oʻzining ip-gazlama, shoyi matolari, tikuvchilik va zargarlik hunarmandlari bilan olamga mashhur edi. Hirot ham oʻz navbatida turli qimmatbaho metallardan zeb-ziynatlar yasashda mohir boʻlsa, Shahrisabz va Kesh eli shirin taomlari hamda xomashyo mahsulotlar yetkazib berish bilan mashgʻul hisoblanishgan. Bunday hunar egalari bilan bir vaqtda ushbu ellarda kitobat sanʼati, qoʻlyozma asarlarni koʻchirib yozish, xattotlik va musavvirlik, lavvohlik va sahhoflik kabi kitobiy sanʼatlar rivoj topgan edi. Ular tomonidan ishlov berilgan va koʻchirilgan asarlar nafaqat kutubxonalarda, balki xazinalarda ham noyob va qimmatbaho mulk sifatida saqlanar edi. Saroy ahli va ilm ahli yigʻinlarida ularni tahlil va tafsir etish, maʼzmun-mohiyatini oʻrganishga intilgan edi. Amir Temur esa mana shunday ilm ahli koʻpayishini maqsad etgan holda “Bibixonim”, “Muhammad Sulton” kabi madrasalarni shaxsan oʻzi bosh-qosh boʻlib qurdirganining ham sababi shunda edi. Ayniqsa, koʻplab oʻz uyida qizlarga ilm berish bilan shugʻullangan otin bibilar boʻlib, ular faoliyati yurtida tahsil berivchi maktablarning toʻrtidan bir qismiga toʻgʻri kelardi[2;19]. Boshlangʻich taʼlimni olishgan maktab bolalari, “Haftiyak”, “Qurʻon”ning yettidan bir qismini yod olishgach, ilmlarini mstahkamlash uchun madrasalarda tahsilni davom ettirishgan. Barcha taʼlim oluvchilar milliy va diniy anʼanalar ruhida tarbiyalanib, aytish mumkinki, Amir Temur davri haqli ravishda diniy va dunyoviy bilim berish maskanlaridan, maʼrifat va madaniyat oʻchoqlaridan biri edi. Chunki, ular ilohiyot, hiqquq (fiqh), mantiq, matematika (riyoziyot), handasa (geometriya), astronomiya, tibbiyot, tarix, joʻgʻrofiya, adabiyot, arab tili va boshqa dunyoviy fanlardan ham saboq olishgan. Tahsil beruvchi mudarrislar bilan bir qatorda, oʻzlari eshitgan va koʻrgan voqealarini taʼsirchan va sheʼriy yoʻlda yetkazuvchi qissaxonlar dunyoviy voqealar, gʻaroyib sarguzashtlar, tarix, sanʼat va adabiyotdan qissalar soʻzlab berish bilan shugʻullanganlar. Bu orqali ular oʻz yurtlariga yoshlar qalbida muhabbat uygʻotish, Temur va temuriylarning davlat tuzish, uni boshqarish, xalq va mulozimlar oʻrtasidagi munosabatlarda Amir Temurning oqilona va adolatli siyosati, el boshilarning fuqarolar bilan boshqaruv

tamoyillari, diplomatik aloqalarni olib borish yo'llaridan tahsillar berishgan.

Shuningdek, Amir Temur siyosatining bosh mezonini bo'lgan "Kuch adolatda" shiori mashvaratlar va yig'inlarda amal qilar ediki, akademik Ibrohim Mo'minov va Hilda Hukhem ilmiy izlanishlarida uning adolatpesha hukmdor sifatidagi faoliyati o'rganiladi.

Ingliz olimasi Hilda Hukhem Amir Temurni O'rta Osiyo o'tmish taraqqiyotida to'plangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy merosini o'zida mujassamlashtirgan va bu madaniy urf-odatning davomchisi bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etar ekan, uni "Jismonan baquvvat va yuksak ma'naviyati bilan ajralib turadigan shaxs" sifatida talqin etadi. Olima yozadi: "U tarixni yaxshi bilardi. Temur davlat ishlaridan bo'sh chog'larida va dam olish onlarida o'z devonida bilimdon kishilar bilan bahsga kirishar hamda o'z xalqi ertaklarini maroq bilan tinglar edi. Temur tarix, diniy ta'limot hamda ilmiy muammolar bo'yicha atoqli olimlar bilan teng ravishda munozara qila olardi. Angliyadan tortib Xitoygacha bo'lgan mamlakatlar diplomatik arxivlari hujjatlarining guvohlik berishicha, Temur yon qo'shni podsholiklar bilan ham, uzoqdagi davlatlar bilan ham mohirlik bilan diplomatik munozaralar olib borgan"[3;13]. Ingliz olimasi H.Hukhem sohibqiron Amir Temurni har tomonlama obyektiv o'rganishda uni bunday dunyo tan olgan shaxs sifatida shakllanishi azaldan bu yurtda falsafa, tibbiyot, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot sohaslarida olamshumul asarlar yaratilgan ekanligi ta'kidlab o'tadi. "Bu asarlar keyinchalik esa Yevropa Uyg'onish davriga turtki bo'ldi va Yevropa fanining uzoq asrlar davomidagi taraqqiyotida asos bo'lib xizmat qiladi. Uning avlodlidan Mirzo Ulug'bekning astronomiya sohasiga qo'shgan hissasi ulkan bo'lib, XVII asrga kelib, Angliya qirolligining birinchi asronomi Ulug'bek tuzgan astronomik jadvallardan unumli foydalangan. Shu ma'noda XV asrni temuriylar renessansi davri deb atash mumkin"[4;14]. Mana shunday ilmiy izlanishlardan oziqlangan holda o'zbek adabiyotida Amir Temur va boshqa tarixiy shaxslarning obrazlarini yaratish borasida to'plangan ijodiy tajribalar, mualliflarning individual mahorati, ular yaratgan asarlar poetikasi adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Bu borada B.Ahmedov, G.A.Pugachenko, R.G.Mukminova, B.Lunin, B.Qosimov, I.Noyazov, A.Qosimov, D.Turayev, H.Umurov, F.Hojiyeva,

D.Abidjanova, A.Nosirov, G.Ashurova, B.Ermatov, S.Mirvaliev, U.Normatov, Z.Pardaeva, Sh.Doniyarova, I.Yoqubov, A.Nosirov, X.Xamroqulova, S.Meliev, B.To'raeva, M.Mirqosimova, A.Xolmurodov, I.Samandarov, A.Ergashev, O.Iskandarova, Z.Rahimov, Sh.Isaeva, O.Dadaboyev, S.Komilova, F.Ikromxonova, T.Alimardonov singari olimlarning faoliyatini e'tirof etish joiz. Ularning izdoshi bo'lish bilan birgalikda, tadqiqotchi Sh.Alaueva yuqoridagi izlanishlardan farqli ravishda "Temur tuzuklari"da keltirilgan falsafiy fikrlarni o'rganar ekan, bugungi zamonaviy pedagogik mahorat namunalari asliyatdan buyuk shaxslarning odilona fikrlaridan oziqlanishini ilmiy asoslashga kirishadi. "Temur tuzuklari"da keltirilgan, "Har kimdan kengash oldim, har kimdan fikr o'rgandim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasida saqlab, ishlata bildim"[5;58], degan fikrlari zamirida inson xotirasida saqlanguvchi hayotiy tajribalar, aql, nasihat xulosalarini o'z tafakkurida tahlil qilish, sintez etish, qiyoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish va yaqqollashtirish kabi fikrlash bosqichlari yotishining dalilidir. Bunda tafakkur- fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvayi hofizasi kuchli inson har qanday mushkulotni oson qilish yo'llarini topa oladi. Amir temurning nazdida jangda yengilish-yengish ishi taqdir pardasi ostida yashirin bo'lsa-da, inson aqli va tafakkur qobiliyati orqali narsa va hodisalar orasidagi bog'liqliklarni va munosabatlarni, xususiyatlar va farqlarni tushunib, umumlashtirish natijasida chama va taxmin idroki bilan sezish mumkinligi haqidagi falsafiy ilmni hayotda asoslab bera oldi. Buning isbotida esa, "O'ylaganimdek, ish tutdim va tadbirim taqdirga to'g'ri keldi"[6;42], - deydi. Buning uchun nafaqat hayotiy tajriba, mushohada eta olish uchun ilm shaydosi bo'lish ham talab etiladi. Ibn Arabshoh ma'lumot berganidek, "U azaldan ilm shaydosi"[7;208] edi. Amir Temur davrida barcha sohalarda ilm ahli va olimlar bilan to'lib-toshgan Samarqand, Buxoro, "Qubbatul ilm va adab" – Kesh shaharlarining dovrug'i olamni tutgan edi. Bu shaharlarning nurli go'shalarga aylanishi ko'plab adib va yozuvchilar, musiqa ilmi va shoirlar tomonidan vafs etilishiga yana bir sabab, Amir Temur o'z davridan barcha ilmlardan-da afzalroq ravishda diniy ilm egallashga ham katta e'tibor qaratgan edi. "Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir (Qur'onni sharhlash), hadis,

fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharlarga olim va mudarrisarlarni tayin qildim”[8;19]. Amir Temur davrida tahsil berish masalalari haqida fikr yuritganimizda u tomonidan yaxshi tahsil olgan talabalarga tayinlangan nafaqalarning miqdori yuqori bo‘lganligi, eng a’lochi toliblar bir necha qo‘y bahosida nafaqa olganliklari ma’lum. Bu orqali esa o‘zining tug‘ilishidan Sohibi Qiron bo‘lgan turk eli farzandining Islom dini rivoji va payg‘ambar Muhammad Mustafoning e’tiqodiga musulmonlar orasida rivoj berganligining guvohi bo‘lish mumkin. “Temur tuzuklarida” keltirilgan insonning o‘n ikki axloqiy sifati adabiyotshunos olim va shoirlar ijodida ham ko‘zga tashlanadi.

Avvalo bunday sifatlar aslida Sohibqiron Ko‘ragonning o‘z tarbiya jihatida mujassam edi. Bu sifatlar avvalida kelgan beg‘arazlik sifatida Amir Temur hammaga bir xil jiddiy va odil qaraganligini, boyni kambag‘aldan ustun qo‘ymaganligini anglash mumkin.

Kambag‘allarga xayr-u ehson qilganligi, mojaro va muammoni diqqat bilan o‘rganib, tekshirganligi, Qur‘ondagi parvardigorimning amri bandalar uchun vojib degan oyatlarni o‘ziga farz qilib olganligi va umr bo‘yi barcha ishlarida unga amal qilganligi “Temur tuzuklar”idan bizga yaxshi ma’lum. Ayniqsa, diniy masalalar bilan bog‘liq ishlarni kundalik va dunyoviy ishlardan yuqori qo‘yganligi, o‘z so‘zlarida haqiqatgo‘ylikka amal qilishi va bu dunyo va u dunyo borasida tinglab turib haqiqatni yolg‘ondan ajrata bilib, aslida, bu yo‘lgon dunyoni chin dunyodan farqlashga undaydi. Insoniy a’lo sifatlarida, shuningdek, bajarolmaydigan va’dani bermasligini, birovga hasad bilan qaramasligini ko‘rishimiz mumkin, Amir Husaynning ochko‘zligi va hasadi uning halokatiga sabab bo‘lganligining asosidir. Amir Temurning “Men imon bilan qudrat bir onadan tug‘ilgan deb eshitganman, shuning uchun mustahkam imonga tayangan qudrat mustahkam bo‘ladur”[9;112] fikri keltiriladi.

XULOSA. Demak, Amir Temurga bag‘ishlangan bir qator ilmiy asarlar qatorida yuqorida tahlilga tortilgan tadqiqot o‘zbek adabiyotida mavjud qarashlarni bu buyuk shaxs hayotida eng murakkab va hal qiluvchi pallalar o‘z aksini topganligi, muallif davlatlar va millatlar taqdiriga aloqador bo‘lgan ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisalarni paydo qilayotgan ulug‘ Sohibqironning o‘y-xayollari, falsafiy mushohadalarini yuzaga

chiqarishni maqsad qilganligi bilan ahamiyatli. Shuningdek, olam va odam, urush va tinchlik, adolat va razolat o‘rtasidagi abadiy qarama-qarshiliklarning Sohibqiron singari fotihlar faoliyatida u yoki bu tarzda namoyon bo‘lishi kitobxonlarga yetkazilishi zarur bo‘lgan asarni anglash xulosalaridandir. Shuningdek, Amir Temur haqida yaratilgan ilmiy asarlarni qiyosiy-tipologik aspektda o‘rganish jarayonida mualliflarning individual uslubi va badiiy mahoratini hisobga olish zarur. Amir Temur siymosini afsonaviy shaxs va xalq og‘zaki ijodi qahramonlari singari romantik qiyofada namoyon qilish an’anasining salbiy jihatlarini o‘rganilib, o‘zbek ilmiy izlanishlarida Amir Temurning xalq va millat uchun qilgan xizmatlari, milliy davlatchilikni yuksaltirish yo‘lidagi xatti-harakatlari, uning avlodlarga qoldirgan ulkan faxr bilan birgalikda boy madaniy merosini tahlil qilish temuriyshunos olim va olimalar hamda tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Sh.Alauyeva. Amir Temurning ma’rifiy-tarbiyaviy qarashlari. Pedagogika. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2006. – B.9. (143).
2. Sh.Sh.Alauyeva. Amir Temurning ma’rifiy-tarbiyaviy qarashlari. Pedagogika. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2006. – B.19. (143).
3. Хилда Хукхем. Властитель семи созвездий. – Тошкент: Адолат, 1994. – Б. 13. (320).
4. Z.Yaxshiyeva. Jahon adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения. 2023.
5. Amir Temur o‘gitlari. – Toshkent: Navro‘z, 1992. – B.58(64).
6. O‘sha manba, - B.42.
7. Inb Arabshoh. Ajoyib ul maqbur, fi tarixi Taymur. –Toshkent: Mehnat. 1992. –B.208. (328).
8. Amir Temur og‘itlari. – Toshkent: Navro‘z, 1992. – B.19.
9. Автобиография Темурлана. – Москва. 1984. – Б.112.
10. Z.Yaxshiyeva. XVI asr ingliz adabiyotida yoritilgan Temur obrazining qiyosiy tahlili. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, 2023.